

**KONGODAGI SIYOSIY VA DIPLOMATIK ZIDDIYATLAR: SSSR-  
O'ZBEKISTONDAGI MUNOSABAT**

*Boboqulov Oxunjon Axmat o'g'li*

*BUXDPI o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Kongo davlatining Belgiyadan milliy mustaqillik olish uchun olib borgan kurashlari, ushbu jarayonda Sobiq SSSR davlatining faoliyati, BMT va Afrika davlatlarining Kongodagi siyosiy jarayonlarga munosabati. AQSh va G'arb davlatlarining Kongodagi separatchilarni qo'llab-quvvatlashi, O'zbekiston aholisining ushbu harakatlarga qarshi chiqishlari, Kongoda G'arbparast Mobutu diktaturasining o'rnatilishi va SSSR-Kongo munosabatlarining sovuqlashishiga oid fikr-mulohazalar tarixiy adabiyotlar va davriy matbuotdagi materiallar asosida yoritilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Afrika, Kongo, mustamlaka, mustaqillik, bayonot, demokratiya, ozodlik, bayonot, BMT, tinchlikparvar kuchlar, reaksiya, separatik kuchlar, Kongolez xalqi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается борьба конголезцев за национальную независимость от Бельгии, деятельность бывшего Советского Союза в этом процессе, реакция ООН и африканских стран на политические процессы в Конго. Освещены поддержка США и странами Запада сепаратистов в Конго, противодействие народа Узбекистана этим действиям, установление в Конго прозападной диктатуры Мобуту, охлаждение отношений СССР и Конго. на основе исторической литературы и материалов периодической печати.

**Ключевые слова:** Африка, Конго, колониализм, независимость, декларация, демократия, освобождение, декларация, ООН, миротворческие силы, реакция, сепаратистские силы, конголезский народ

**Abstract:** *In this article, the Congolese's struggle for national independence from Belgium, the activities of the former Soviet Union in this process, the UN and African countries' reactions to the political processes in the Congo. The support of the US and Western countries to the separatists in the Congo, the opposition of the people of Uzbekistan to these actions, the establishment of the pro-Western Mobutu dictatorship in the Congo, and the cooling of the USSR-Congo relations are highlighted on the basis of historical literature and periodical press materials.*

**Keywords:** *Africa, Congo, colonialism, independence, declaration, democracy, liberation, declaration, UN, peacekeeping forces, reaction, separatist forces, Congolese people*

Kirish. Afrika tarixchilar nuqtai-nazariga qaraganda insoniyat beshigi bo'lib, zamonaviy tarixda uzoq vaqt mintaqa davlatlari mustamlaka bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida milliy ozodlik va mustaqillik uchun harakatlar avj olgan. Afrika qit'asidagi har bir mamalakatning milliy mustaqilligi alohida bir mavzu bo'lsada, biz ushbu izlanishimizda Kongo davlati va uning milliy mustaqillikka erishuvi, ushbu jarayonda sobiq SSSRning o'rni va roli masalasiga alohida to'xtalib o'tishni lozim deb hisobladik. O'zbekistonning ham Afrika xalqlari bilan o'zaro munosabatlari uzoq o'tmishga ega bo'lib, turli tarixiy jarayonlarda mintaqa xalqlari bilan xalqaro ahamiyatga ega munosabatlarni amalga oshirganlar. Mustaqillik sharoitida, O'zbekistonning Afrika davlatlari bilan har tomonlama turli aloqalari kengayib, rivojlanib bormoqda. Shu sababli hozirgi globallashuv jarayonida O'zbekistonning Afrika davlatlari bilan olib borgan aloqalari ildizlarini o'rganish, uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holati, madaniy aloqalarini o'rganish juda muhim sanaladi.

Afrikaning moddiy xom-ashyolarga boy hududlaridan biri bo'lgan Kongo<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Конго-Бельгияликларнинг Конгода пайдо бўлиши 1876 йил деб келтирилади. 1885-1908 йилларда Конго Бельгия қироли Леопольд II бошчилигидаги “Эркин Конго давлати” деб номланган ва қиролнинг шахсий мустамлакаси бўлган. 1908 йилда қирол мустамлакани Бельгия давлатига сотган ва мамлакат Бельгия [www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

(Kongo Demokratik Respublikasi) Belgiya davlati tomonidan mustamlakaga aylantirilgan bo'lib, ikkinchi jahon urushidan keyin milliy ozodlik harakatlari kuchayib borgan. 1960 yil may oyida Kongoda o'tkazilishi mo'ljallangan parlament saylovlarda P.Lulumba<sup>2</sup> ning g'alaba qozonishi aniq bo'lib turgan vaziyatda kelajakda mamlakatda o'z ta'sirlarini o'tkazish maqsadida 13 maydan boshlab Belgiyaning Kongodagi qo'mondonligi mavjud tuzum tarafdorlari bo'lgan qabilalarga qurollar tarqatganlar. Buni haraktni "Abako" (Belgiya Kongosi) partiyasi qo'llab-quvvatlagan[5]. Ko'rilgan bu harakatlar Kongo mustaqilligiga to'siq bo'la olmagan. Xalq chiqishlari ta'siri ostida Kongoga kelgan Belgiya qiroli Boduen 1960 yil 30 iyunda o'zining Leopoldvilda (Hozirgi Kinshasa) tantanali qabul vaqtida Kongoni mustaqilligini e'lon qilishga majbur bo'lgan[31,199]. Kongoda uzoq kutilgan mustaqillik qo'lga kiritilgan.

Sovet ittifoqi Kongoning mustqilligini birinchi bo'lib tan olgan (1960 yil 7 iyul) davlat bo'lib, ushbu davlatga elchi qilib, M.D. Yakovlev tayinlangan. Kongoga yetib borgan sovet delegatsiyasiga hali bu yerda turgan Belgiya ma'murlarining sovuq munosabatlari va mahalliy aholi bilan munosabatlariga to'sqinlik qilganligini delegatsiya rahbari bo'lgan M.R. Raxmatov o'z kundaliklarida keltirib o'tgan[29,392]. Belgiya va uni qo'llab-quvvatlagan G'arb davlatlari Kongodan chiqib ketishga toqat qila olmaganlar. Turli ig'volarni uyushtirib, qonuniy hukumat ishiga xalaqit bera boshlaganlar. Turli ig'volar va qo'poruvchiliklar sababli bosh vazir P.Lulumba BMTdan 1960 yil 14 iyulda Kongoga Belgiya va AQSh intervensiyasidan himoyalanih maqsadida qo'shin kiritishni so'rashga majbur bo'lgan. SSSR tomonidan qo'llab-quvvatlangan bu talabni BMT Afrikaning 12 davlatidan 15700 askar kiritishga ruxsat berish bilan

---

Конгоси номини олган. 1960 йил май ойидаги парламент сайловларида П.Лулумба ғалаба қилган ва 30 июнда мамлакат Конго Республикаси номи билан мустақилликни қўлга киритган. Trefon, Theodore. Reinventing Order in the Congo: How People Respond to State Failure in Kinshasa. - London and New York: Zed Books, 2004. - P. 7

<sup>2</sup> Лулумба Патрис (1925 йил 2 июль-1961 йил 17 январь)-Конго миллий ҳаракатининг асосчиси. Тетела қабиласида фермер Франсуа Толенге Отецхими оиласида дунёга келган. Фельдшер мутахассислигини тамомлаган. 50-йилларда сиёсий фаолиятни бошлаган. 1955 йилда Бельгия либерал партиясига аъзо бўлган. сиёсий қарашлар туфайли бир муддат турмага ҳам ўтирган. 1958 йил Конго миллий ҳаракатига асос солган. 1960 йил май ойи сайловларида парламентдаги 137 ўриндан 44 тасини қўлга киритган Конго миллий ҳаракати етакчиси бош вазир лавозимини эгаллайди. Сиёсий рақиблари томонидан 1961 йил январида ўлдирилган. Хохлов Н.П. Торжество из торжеств // Патрис Лумумба. - М. : Молодая гвардия, 1971. - 272 с.

qanoatlantirishga majbur bo'lgan[31,201]. Belgiya va AQSh boshchiligidagi NATO davlatlari tinchlikparvar kuchlar qiyofasida qonuniy hukumatga qarshi terror va turli qo'poruvchilik ishlarini tashkil qilganlar. Bu kabi voqeayliklarga Sovet davlati bayonot berib, Belgiya va NATO davlatlarini tezda varvarlarcha xunrezlikni to'xtatishni, Kongo muvaqqat hukumatiga SSSR iqtisodiy va siyosiy yordam ko'rsatishni so'raganligi ma'lum qilgan. ikkinchi avgust kuni SSSR 10 ming tonna oziq-ovqat yuborayotgani, yaqin orada Kongoga yuzta avtomashina, ularni ta'mirlovchi mutaxassislar, ehtiyot qismlari, sovet vrachlari, medikamentlar, meditsina jihozlari yuborishi, sovet davlati Kongoga iqtisodiy va texnik yordam ko'rsatishga tayyorligini ma'lum qilgan[7]. Bu G'arb davlatlarini Kongo uchun yanada keng ko'lamlı hujum uyushtirishlariga sabab ham bo'lgan.

Separatchilarni qo'llab-quvvatlagan Belıgiya hukumati Katanga o'lkasida "mustaqil" davlat tuzilishini tashkillashtirgan. "Pravda Vostoka" gazetasining 7 avgustъ sonida SSSR hukumatining Kongodagi voqealarga nisbatan bayonoti chop qilingan bo'lib, unda Belıgiya qo'shinlarini Kongodan olib chiqib ketish talab qilingan. Ilgari surilgan qator talablar qatorida Katanga o'lkasini Kongining ajralmas qismi deb xalqaro jamoatchilikni tan olishiga oid ma'lumotni ham ko'rish mumkin[8]. Ammo, BMTning Kongodan Belıgiya qo'shinlarini olib chiqib ketishi to'g'risidagi BMT xavfsizlik kengashi qarorini bajarmaslik uchun Katangada o'z davlatini qurgan sotqin Chombi hukumati turli choralarni qo'llay boshlagan[27]. Amerika missionerlik matabi bitiruvchisi va G'arbparast Chombi<sup>3</sup> BMTning vakillari orqali Katangani alohida mustaqil davlat deb tan olishlari uchun harakat qilgan, ammo, uning uddasidan chiqa olmagan[24]. Katanga markazi bo'lgan Elizabetvilda bo'lib o'tgan muzokaralar bu kabi xulosalar chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Kongodagi G'arb intervensiyasiga Afrikadagi rivojlanishning sotsialistik yo'nalishini tanlagan davlatlar tinch qarab turmagan. Birinchi navbatda Gana

---

<sup>3</sup> Моиз Капенда Чомбе (1919-1969 йй)- конголез ва катанга сиёсатчиси ва давлат арбоби тан олинмаган Катанга давлати президенти (1960-1963 йй) Конго Республикаси бош вазири (1964-1965 йй). CONAKAT ўнг айирмачи партия раҳбари. Ғарбпараст ва антикоммунист Патрис Лулумбанинг сиёсий рақиби бўлиб, унинг ўлимида асосий айбдорлардан бири ҳисобланади. Мобуту Сесе Секо режими даврида ҳам ўлим жазосига лойиқ деб топилган бўлиб, умрининг охирини Жазоирда қамоқ жазосида яқунлаган.  
[https://ru.wikipedia.org/wiki/Чомбе\\_Моиз](https://ru.wikipedia.org/wiki/Чомбе_Моиз)  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

prezidenti Kwame Nkruma SSSR hukumatiga maktub yo'llab, Gana qo'shinlarini havo orqali Kongo davlatiga yetkazib qo'yishni so'ragan. BMT doirasidagi tinchlikparvar kuchlar tarkibida bo'lgan Gana qo'shinlari Kongoga yetkazilganligi uchun SSSR hukumatiga minnatdorchilik ham bildirilgan[2]. "Pravda Vostoka" gazetasining 1960 yilgi sonlarining birida Kongo mustaqilligi uchun Gana parlamenti hatto umumiy safarbarlik e'lon qilib, armiyani jangovar shay holatga keltirish to'g'risida qonun qabul qilganligiga oid ma'lumot mavjud[16]. Gana Kongo mustaqilligi uchun xalqaro maydonda qator ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, BAR (Birlashgan Arab Respublikasi) Prezidenti Jamol Abdul Nosirga Gana Prezidenti Kwame Nkruma telegrama jo'natgan. Unda, agar BMT qarorlarini Belgiya hukumati bajarmasa va Kongodan qo'shinlarni olib chiqib ketmasa, Kongoga yuboriladigan qo'shma harbiy missiyaga qo'mondonlik qilishni so'ragan. 1960 yilda, 11-avgustda "Аль-Ахram" gazetasi Nosirning javob maktubini e'lon qilib, unda umumiy qo'shin qo'mondonligiga BAR roziligini ma'lum qilgan va Belgiya qo'shinlarini Kongodan chiqarib yuborilishiga barcha kuch-g'ayratini sarflashini ma'lum qilgan[35]. 13 avgust 1960 yilda Sovet ittifoqining Kongodagi elchisi M.D. Yakovlev Kongo bosh vaziri Patris Lulumbaga SSSRning sovg'asi bo'lgan Il-14 samolyotini topshirgan[32]. Bu o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan Kongo xalqi va hukumatini sotsialistik lagerdagi mamlakatlarga katta umid bog'lagan. Ushbu voqeyliklar 9-avgustda BMTning xavfsizlik kengashida Kongo masalasi ko'rib, qator davlatlarning Kongodan Belgiya qo'shinlarini olib chiqib ketishini talab qilganligi ortidan kelib chiqqan[20].

Nato qo'shinlarining xunrezliklari sabab Kongo bosh vaziri Patris Lulumba 15 avgust kuni Leopoldvilda bayonot berib, BMT bosh kotibi Xammarsheldga maktub yo'llagan. Unda, Kongolez xalqi BMT va uning xavfsizlik kengashiga bo'lgan ishonchini yo'qotgani, Kongoda BMT qarorlarini bajarilishini nazorat qilish uchun 14 davlat (Marokash, Tunis, Efiopiya, Gana, Gvineya, BAR (Misr va Suriya bu vaqtda Birlashgan Arab Respublikasi edi), Sudan, Seylon, Liberiya, Mali, Birma, Hindiston, Afg'oniston va Livan) uchinchi

dunyo mamlakatlaridan iborat missiya tashkil qilishni talab qilgan[9]. 16 avgustda esa, Patris Lulumba BMT oldiga beshta punktdan iborat talablarini qo'ygan. Ular, 1. BMT nazorati ostidagi aerodromlarni kongolez armiyasi egallashiga qarshilik qilmaslik, 2. Katanga viloyatiga qora tanli bo'lmagan BMT va kongolez qo'shinlarini kiritishga ko'maklashish, 3. Afrikadan bo'lmagan qo'shinlarni Katangadan olib chiqib ketish, 4. BMT kongolez qo'shinlarini Katangaga va mahalliy aholini u yerdan tashish uchun samolyotlar berishi, 5. BMT tezda Belgiya hukumati tomonidan Katanga mahalliy ayrimachilariga tarqatga qurollarni musodara qilishi kerak, degan mazmundagi talablar bo'lgan[36]. Bu haqqoniy talab dunyo hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlangan.

15 avgustda Belgiyaning bir qism askarlari G'arbiy Yevropaga jo'nab ketganligi, Katanga hukumati boshlig'i Chombi Belgiya generali Geysenga o'z davlatiga ko'rsatilgan yordam uchun minnatdorchilik bildirgan. Geysen esa belgiyalik askarlarga minnatdorchilik bildirgan. Elizabetvildan belgiyalik askarlar samolyoti jo'nab ketayotgan bir vaqtda shaharda belgiyaliklarga nisbatan aytilgan nomunosib fikrlar uchun politsiya mahalliy aholini shafqatsiz jazolayotganga oid ma'lumotlar o'sha davr matbuotida keltirib o'tilganini ko'rish mumkin[38]. 16 avgustda Leopoldvilda so'nggi Belgiyaga qarashli bo'lgan harbiy qismdan belgiyalik askarlar Kiton shahrida bo'lgan bazasiga uchib ketishga majbur bo'lgan. Ularni bunga Kongo Respublikasi generali Lundula va uning 200 kishidan iborat askarlari majbur qilgan. 17 avgustda P.Lulumba Leopoldvilda hukumat ishini tiklagan va mamlakatda olti oy muddatga mo'ljallangan harbiy holatni e'lon qilgan. Shuningdek, Kongo oltin zahirasini muzlatganligi uchun Belgiya hukumati oldiga 15 kunlik muddat qo'ygan, aks holda Kongodagi Belgiya mulklarini milliy lashtirishni ma'lum qilgan. Bundan tashqari Kongodagi voqealarni Qohira, Konakri, Akra va Xartumda Kongo mustaqilligi tarafdorlari kuzatib o'zaro maslahatlashib borganlar[25].

Shuningdek, SSSRning turli shahar-qishloqlarida, turli Respublikalarida Kongo xalqiga xayrixohlik namoyishlari, yig'ilishlar, uchrashuvlar o'tkazilgan. O'zbekiston SSRda ham Kongoda milliy ozodlik harakatlari boshlangandan keyin

Belgiya uning boy Katanga o'lkasida separailar bilan hamkorlikda ozodlik harakatini bo'g'ishga harakat qilganligi O'zbekiston aholisiga davriy matbuot orqali xabardr qilib turilgan. Ayrimlar Kongo xalqiga xayrixohliklarini bildirib gazeta muharririyatiga o'z fikr-mulohazalarini yozib ham yuborganlar. "Pravda Vostoka" matbuot organi ularni jamlab qisqacha mazmuni o'z sahifalarida yoritgan. Masalan, "Pravda Vostoka"ning 9 avgust sonida "Ruki prochъ ot Kongo" ("Qo'lingni Kongodan tort") nomli maqola ostida o'zbekistonliklarning Kongo mustaqilligiga xalaqit berishga uringan imperialistik davlatlarga nisbatan maktub orqali bitilgan fikrlarini keltirib o'tgan. Maktub egalari M.Sadikov (Chirchiqdan), Samarqand ipakchilik fabrikasi ishchisi M.Muxtorova, 10-sinf o'quvchisi M.Karimova (Samarqand), Olmaliqdan Kozlov, Kotlov, Axmedov va Paramonovlar, qurilish texnikumi talabasi K.Mansurov, ulug' vatan urushi ishtirokchisi S.D. Mansurov (Toshkent shahri), F.Ya. Kolchigin (Mirzacho'l) va boshqalarning Kongo ozodligiga oid fikr-mulohazalaridan parchalar keltirilgan[30]. Bu uzoq Afrikada sodir bo'layotgan voqeyliklarga O'zbekistonliklarning befarq bo'lmaganligini ko'rsatadi.

Belgiya Kongodan chiqib ketishga shoshilmagan va BMT qarorlarini deyarli bajarmagan. Komina shahridagi harbiy bazasida qo'mondon bo'lgan Remi van Lerd xorijiy jurnalistlarga intervъyu berib, bazani tark etmasligini ma'lum qilgan. Harbiy bazada ikki ming harbiy xizmatchi va 600 texnik xodim mavjud bo'lib, ular Kongodan ketishni rejalashtirmagan. Hatto, Belgiyaning qo'g'irchoq hukumati vakili Chombiga qarshi bo'lgan Albertvil shahrida qirg'in tashkil qilganlar. Shuningdek, 15 avgustda yana bir qo'g'irchoq davlat Kongoning Bakavangi shahridan olingan ma'lumotga ko'ra, Kasai o'lkasida "Mustaqil tog'burg'ulash davlati" tuzilgan va ular Chombi davlatidan "yordam" so'raganlar. Kasai o'lkasining yarmini egallagan bu davlat olmoslarning katta qismini ishlab chiqarishi bilan mashhur bo'lgan va "For Miner" kompaniyasi uni qo'llab-quvvatlab turgan[1]. Kongo bosh vaziri P.Lulumba 26 avgustъ kuni Lenopolъdvilda Afrika malakatlarining ochiq kongressida bayonot berib, barcha Afrika davlatlarini milliy ozodlik va birdamlik yo'lida qo'llab-quvvatlash,

mustamlakachi davlatlar o'rnatgan barʼerlarni to'liq yakson qilish, Afrika birlashgan harbiy kontingentini shakllantirish, Leopoldvilda Umumafrika radioeshittirishlari markazini tashkil etish, Kongo poytaxtida ilmiy markaz tashkil etish kabilarni ma'lum qilgan[12]. Separatchilarga qarshi ayovsiz kurash boshlangan. 29 avgustda Kongo armiyasi Bakvangu (mustaqillikni e'lon qilgan "Kasai tog'ruda davlat" markazi)ga kirgan[39]. Ushbu voqealar davomida Patris Lulumba Stenlivilda xalq oldida chiqish qilib, nafaqat milliy mustaqillik, balki, iqtisodiy mustaqillik to'g'risida ma'ruza qilgan. so'ng "Sizlar Katangaga qarshi harbiy yurishga tayyormisizlar?"-deya bergan savolga xalq kongolez tilida "Uxuru" ("Ozodlik") deb qichqirgan. 28 avgustda Kasai va Katanga chegarasida to'qnashuvlar sodir bo'la boshlagan[26]. P.Lulumbaning otashin nutqlari kongoliklarni mustaqillik va ozodlik sari kurashlarga ilhomlantirgan. Jumladan, P.Lulumba 1960 yilgi nutqlaridan birida kongoliklarni milliy ozodlik uchun kurashga chorlab, ularni chekinmaslikka milliy mutaqillikni qo'lga kiritish yo'lida jonbozlik ko'rsatishga va keyinchalik bu qahramonliklarini farzandlariga va nevaralariga g'urur bilan gapirib berishlari, 1960 yil Kongo aholisining xotirasida qolishi uchun kurashlarga chorlagan. Bu kurash xorlik va qullikdan qutilish uchun adolatli va oliyanob kurash ekanligini ta'kidlagan[14,341-344].

1961 yil 17 yanvarda P.Lulumba o'ldirilgandan keyin SSSR va Kongo munosabatlari sovuqlasha boshlagan. Ayniqsa 1965 yil noyabrda Mobuti hokimiyatni to'la egallab olgandan so'ng bu holat kuchaygan[4,14]. Chunki, Kongo siyosati to'la AQSh va G'arb davlatlari manfaatlariga bo'ysundirilgan. Kongoda faoliyat olib borgan sovet ayg'oqchisi O.I. Najestkin keyinchalik o'z xotiralarida, AQSh Kongoni qo'lga kiritish maqsadida BMT va uning bayrog'i ostida mahalliy yetakchilarni, o'zi uchun noqulay raqiblarni birinchi navbatda P.Lulumbani yo'q qilishda foydalanganligini yozib qoldirgan[21, 156]. 1961 P.Lulumba o'ldirilgandan so'ng sovet ittifoqi bu mamlakatga bo'lgan qiziqishi pasayib borgan[23,70]. P.Lulumbaning o'ldirilishi SSSR va Bel'giya munosabatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan va 1961 yil yanvar-may oylarida bu sovuqlik kuchaygan davr bo'lgan[19,141]. Siyosiy jihatdan iliqlik Bel'giyada



hukumat almashgandan keyin tarqalganligi tarixiy adabiyotlarda qayd etib o'tilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Kongoda milliy ozodlik harakatlari muvofaqqiyat qozonib, mustaqil davlat tashkil topgan. Bu yo'nalishda P.Lulumba va bir qator Kongo xalqi farzandlari qurbon berilgan. Ammo, xom-ashyo va tabiiy zahiralarga boy o'lkadan chiqib ketishni istamagan G'arb davlatlari Kongoda turli separatik va terrorchi guruhlarini qo'llab-quvvatlash orqali hokimiyat tepasiga o'z gumashtalarini qo'yishga muvoffaq bo'lganlar. Kongo uchun rasman mustaqillik berilgan bo'lsada, amalda iqtisodiy mustamlaka holati saqlanib qolavergan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Бельгийци не уходят из Конго // Правда Востока 26 август, 1960 года, № 198. (11173).
2. Благодарность Советскому правительству // Правда Востока 7 август, 1960 года, № 182. (11157).
3. Винокуров Ю.Н., Орлова А.С., Субботин В.А. История Заира в новое и новейшее время - М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1982. - 311 с.
4. Винокуров Ю.Н. Политическая борьба в демократической Республике Конго (1965 - 2001 гг.) Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. Москва-2005. – 32 с.
5. Вольнения в Конго. // Правда Востока 14 мая, 1960 года, № 112 (11087).
6. Денисова Т., Костелянец С. Бенин: Политические метаморфозы(К 60-летию независимости). // Азия и Африка сегодня 2020 № 12. – С. 38-45.
7. Заявление советского правительства. // Правда Востока 2 август, 1960 года, № 178. (11153).
8. Заявление Советского правительство в связи положением в Республике Конго // Правда Востока 7 август, 1960 года, № 182. (11157).

9. Заявление Лулумбы. // Правда Востока 17 август, 1960 года, № 190. (11165).
10. Заявление Лулумбы. // Правда Востока 19 август, 1960 года, № 192. (11167).
11. Boboqulov, Oxunjon. "SHAROF RASHIDOVNING AFRO-OSIYO XALQLARI BIRDAMLIGI CONFERENCES DA ISHTIROKI XUSUSIDA." *Innovation and development: theory and practice* 2.17 (2023): 187-189.
12. Рахматова, Holidahon. "XOJA AHROR VALIYNING TINCHLIK, OSOYISHTALIK VA HAMJIHATLIKKA DOIR G 'OLIVES–BARQAROR TARAQQIYOT OMILI ADJECTIVE." *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муамолари/Актуальные проблемы социально-governmental issues/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*. 3.S/5 (2023).
13. Murtozayev, Shahobiddin. "ABU HAFS UMAR SUHRAVARDIY INSON NAFSINI ANGLASHGA DOIR FALSAFIY QARASHLARINING TAHLILI." *Scientific journal of the Fergana State University* 1 (2023): 53-53.
14. MZ Orziyev, OAOGL Boboqulov. “ Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro shahri taraqqiyotiga oid” . *Science and Education* 3 (10), 540-544.
15. ATO Teshayev, O Boboqulov. “TURKISTONDA YANGI USUL MAKTABLARINING FAOLIYATI (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI)”. *Scientific progress* 2 (3), 269-275.
16. ATO Teshayev, O Boboqulov. “YANGI USUL MAKTABLARIDA DINIY VA DUNYOVIY FANLARNING O’QITILISHI (IS’HOQXON IBRAT VA MUNAVVARQORI TASHKIL ETGAN MAKTABLAR MISOLIDA)” *Scientific progress* 2 (3), 276-283.
17. O Бабақулов. “MUSTAQIL KONGO DAVLATINING SSSR BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI (davriy matbuot gazetalari tahlili asosida)” ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ.
18. BO Axmat o'g'li. “OSIYO VA AFRIKA XALQLARI BIRDAMLIK TASHKILOTIDA O'ZBEKLARNING ISHTIROKI”

19. BO Axmadovich. “HOMER DOSTONLARI TARIXIY MANBA SIFATIDA O‘RGANILISHI” . Journal of new century innovations 28 (2), 133-139.

20. O Boboqulov. “THE PROBLEM OF MALNUTRITION AMONG YOUNG CHILDREN ON THE AFRICAN CONTINENT AND THE RELATIONSHIP BETWEEN VARIOUS INFECTIOUS DISEASES IN THE REGION”. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD 2 (4), 106-117.

21. O Boboqulov. “OA Temuriylar davrida Buxoro shahri taraqqiyoti”. Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.

22. OA Boboqulov. “Socio-Economic Life During the Reign of Amir Temur and the Timurids (In the Example of the City of Bukhara)”. Miasto PrzyszłościKielce.